



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/1 (10)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining  
2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan  
o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha  
doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin  
bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

**ISSN 2049-3630**

**TOSHKENT**

#### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

#### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*  
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*  
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

#### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

#### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Сайдова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщин и гендерного равенства.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Сайдов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Умирзаков Баходир Хамидович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамат Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*  
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** – *доктор психологических наук.*  
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

#### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

#### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*  
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*  
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

#### XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

#### МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

#### INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

|                                                                                                                                  |   |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| <b>Abdullajanova D.S.</b> Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari ..... | 4 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|

*SOTSILOGIYA*

|                                                                                                                                        |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Saipova M.</b> Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar .....                                              | 10 |
| <b>Xonturayev B.</b> Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari .....                | 16 |
| <b>Йулдошева У.</b> Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане .....                                     | 25 |
| <b>Hashimova G.I.</b> Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari ..... | 32 |

*MAHALLA VA HAYOT*

|                                                                                          |    |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Isamutdinov R.R.</b> Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati ..... | 37 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|----|

*OILA VA JAMIYAT*

|                                                                                                                                        |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Abdiraimova Sh.A.</b> Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....                                                     | 44 |
| <b>Rahimova M.</b> Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi .....                                                                 | 49 |
| <b>Dovranova O.D.</b> Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish..... | 53 |
| <b>Mahkamov U.A.</b> So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....                                       | 58 |

*PSIXOLOGIYA*

|                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Рахимова И.И., Каримова Г.О.</b> Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха ..... | 64 |
| <b>Абидова З.А.</b> Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности .....                                | 69 |
| <b>Ishonkulova N.I.</b> Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....      | 75 |
| <b>Raxmonova Z.N.</b> Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....                           | 80 |

*PEDAGOGIKA*

|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ortikov U.X.</b> The socio-educational model in second language acquisition.....                             | 86  |
| <b>Yulchiyeva D.X.</b> Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat .....      | 92  |
| <b>Аблакулов Ш.Д.</b> Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов ..... | 98  |
| <b>Mirhamidova M.</b> Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari .....                                        | 104 |
| <b>Safoyeva R.J.</b> Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....                           | 109 |
| <b>Yakubov O.T.</b> Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari .....                          | 114 |

*TARIX*

|                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sharipova N.A.</b> XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi..... | 118 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|

va inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari ularni ta'minlashga qaratilgan. Huquqiy kafolatlar tizimi davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslarining harbiy xizmatchilarning mavqeyini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va vositalarni yaratish, ularni yetarli darajada bajaraganlik uchun javobgarlik, harbiy xizmatchilarning buzilgan huquqlarini tiklashning qonuniy usullari va vositalaridan foydalanish imkoniyati, shu jumladan, sudga murojaat qilish, prokuratura va sudning nazoratini o'z ichiga oladi<sup>6</sup>.

**Yakuniy qism.** Bugungi kunda harbiy xizmatchilarni himoya qilish, harbiy xizmatchilarning turli toifalari uchun huquqiy ta'limni tashkil etish va o'tkazish, muayyan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal qilish uchun individual yuridik yordam ko'rsatish, komandirlar va boshqa mansabdor shaxslarni ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish bo'yicha rasmiy faoliyatning huquqiy asoslariga o'rgatish zarur. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining arizalarini ko'rib chiqish

va hal etish, harbiy xizmatchilarni va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlik va sheriklik faoliyatini muvofiqlashtirish ham bu boradagi muhim masala hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining manfaatlarini to'liqroq hisobga olish, huquqlarini himoya qilish, ular bilan samarali faoliyat yurituvchi ijtimoiy ish institutining faol harakatini talab qiladi. Shundagina harbiy xizmatchilar o'z harbiy burchini yanada faol va qiziqish bilan bajarishlari mumkin bo'ladi. Binobarin, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish bo'yicha faoliyat davlat muassasalari, harbiy idoralar boshliqlari, komandirlar, shtablarlarning majburiy funksiyasiga aylanishi kerak. Hozirda ijtimoiy sharoitlar yuqori darajada yaratilishi va harbiy xizmatchilarning oilalari qonun asosida himoya qilinishi, jangovar shaylikni oshirish, harbiy intizomni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yuqori darajada saqlash kabi vazifalarini hal etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

<sup>6</sup> Иноятлов И., Ахмедов А. Армия давлат таянчи – тинчлик кафолати. – Тошкент. “Шарк”, 2004. – Б. 176.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хошимова Г.И. Фукарларнинг ҳукукий маданиятни оширишда ҳукукий нашрларнинг ўрни ва роли // Евразийский научный журнал. 2016. № 5. – С. 145-149.
2. Иноятлов И., Ахмедов А. Армия давлат таянчи – тинчлик кафолати. – Тошкент. “Шарк”, 2004. – Б. 176.
3. Иноятлов И.Ю., Абилов М.Х. Ватан ҳимояси – муқаддас бурч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 43.
4. Иноятлов И.Ю. Ҳарбий хизматнинг маънавий ва ҳукукий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 56.
5. Маҳкамов У. Ахлоқ – одоб сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 34.
6. Гребеньков В.Н. Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. – М.: Прогресс, 2006. – С. 87.



**Isamutdinov Ravshan Raxmonovich,**  
*O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati*  
*Saylov qonunchiligi va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha*  
*o'quv markazi direktori o'rinbosari*  
*e-mail: [ravshan1004@mail.ru](mailto:ravshan1004@mail.ru)*

## MAHALLANING MA'NAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ma'naviy xavfsizlikni mafkuraviy, g'oyaviy, madaniy, axborot-psixologik va milliy qadriyat kabi sohalarga oid tahdidlarning oldini olish bo'yicha mahallaning o'ziga xos funksiyalari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** mahalla, xavfsizlik, ma'naviy xavfsizlik, mafkuraviy, g'oyaviy, madaniy, axborot-psixologik.

**Аннотация.** В статье раскрывается роль и значение махалли в обеспечении духовной безопасности. Также проанализированы специфические функции махалли по предотвращению угроз в таких сферах, как духовная безопасность, идеологическая, мировоззренческая, культурная, информационно-психологическая и национальная ценность.

**Ключевые слова:** махалля, безопасность, духовная безопасность, идеологическая, мировоззренческая, культурная, информационно-психологическая.

**Annotation.** The article reveals the role and importance of mahalla in ensuring spiritual security. The specific functions of mahallas in preventing threats in such areas as spiritual security, ideological, ideological, cultural, information-psychological and national value are also analyzed.

**Keywords:** mahalla, security, spiritual security, ideological, worldview, cultural, information and psychological.

**Kirish.** Ma'naviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim sohalaridan biri bo'lib, davlatlar uchun tarixning barcha davrlarida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etgan. So'nggi yillarda sayyoramizda globallashuv jarayonlarining kuchayishi oqibatida ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etish uchun bo'layotgan urinishlar davlatlar oldiga ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda.

Har bir mamlakat ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'ziga xos milliy tizim yaratadi va ushbu tizim asosida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatini amalga oshiradi.

Mamlakatimizda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi – o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining majmuyi bo'lib, ularning faoliyati jamiyat hayotini diniy, axborot, madaniy va ilmiy sohalardagi milliy manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan<sup>1</sup> bo'lib, ushbu tizimning element sifatida fuqarolik jamiyati institutlaridan biri – mahallaning o'ziga xos o'rini bor.

**Maqsad va uni asoslash.** Mahalla institutining ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni haqida fikr yuritishda avval biz ma'naviy

<sup>1</sup> Исломов И.Н. Маънавий хавфсизлик. Монография. – Тошкент: Complex Print, 2023. – Б. 38.

xavfsizlik tushunchasiga to'xtalib o'tishimiz joiz. Chunki ma'naviy xavfsizlik tushunchasi haqida olim va mutaxassislar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Jumladan, tadqiqotchi A.T. Eshmurodov keltirishicha, ma'naviy xavfsizlik – milliy xavfsizlik tizimining negizi va uning tarkibiy qismi sifatida jamiyat, shaxs, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, harbiy, mafkuraviy, axborot, ilmiy, diniy va madaniy xavfsizlikni ta'minlashni o'z ichiga olgan ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish tizimlari majmuyidir<sup>2</sup>. I.N. Islomovning fikriga ko'ra esa, ma'naviy xavfsizlik – shaxs, xalq va davlatni ezgu maqsadlarga yo'naltiradigan jamiyat hayotidagi mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarning tahdidlardan himoyalanganlik holati<sup>3</sup>. N.P. Zolotovaning ta'riflashicha, ma'naviy xavfsizlik – jamiyat hayotining ma'naviy-mafkuraviy, axloqiy, madaniy asoslarining himoyalanganlik holati<sup>4</sup>. Mutaxassislarning fikrlaridan farqli ravishda, yana boshqa bir manbada ma'naviy xavfsizlik – inson, xalq va jamiyat a'zolarini ma'naviy xurujlar, g'oyaviy tahdidlardan himoyalanganlik tizimini ifodalovchi tushuncha<sup>5</sup>, deya qayd etilgan.

Mazkur ta'riflar va xavfsizlikka oid me'yoriy hujjatlarda qayd qilingan fikrlardan kelib chiqib, ma'naviy xavfsizlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin:

– ma'naviy xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning ma'naviy sohadagi manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati hisoblanadi.

Ma'naviy xavfsizlikning asosiy subyektlari shaxs, jamiyat va davlat bo'lib, ularning ma'naviy xavfsizlik yo'nalishdagi hayotiy muhim manfaatlarini ma'naviy xavfsizlik obyektlari sifatida ifodalanadi. Ma'naviy xavfsizlik yo'nalishlariga mafkuraviy, g'oyaviy, madaniy, axborot-psixologik, axloqiy

va diniy kabi sohalar kiradi. Tahdidlar ichki yoki tashqi ko'ra ajratilishi mumkin.

Umuman olganda, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi haqida so'z yuritganda mahalla institutini ma'naviy xavfsizlik subyekti sifatida boshqa subyektlardan farqli jihatlaridan ajratib olish va ularning funksiyalarini aniqlash lozim.

Mahallaning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faoliyati ma'naviy xavfsizlik yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, u ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi munosabatlar ishtirokchisi ekanligida namoyon bo'ladi. Mahalla ma'naviy xavfsizlikni mafkuraviy, g'oyaviy, madaniy, axborot-psixologik va milliy qadriyatlar kabi sohalarida tahdidlarni oldini olishda ma'lum bir funksiyalarini bajaradi. Bularning ayrimlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, jumladan:

1. Mafkuraviy xavfsizlik yo'nalishida mahalla mafkuraviy profilaktika va mafkuraviy immunitetini shakllantirish ishlarini amalga oshirishda ijtimoiy institut sifatida xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o'rni beqiyos bo'lib, u yot g'oyalarni kirib kelishining oldini olish va ularni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi<sup>6</sup>.

Shu jihatga ko'ra, mahalla hududidagi aholi, ayniqsa yoshlar, xotin-qizlar va ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiya va targ'ibot, tashviqot tizimi asosida mafkuraviy profilaktika ishlarini amalga oshirishda yordam beradi. Ushbu profilaktika mahalla fuqarolar yig'inidagi yoshlar yetakchisi, fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi, "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi, "Ayollar maslahat kengashi", "Keksalar maslahat guruhi" faoliyatlarida bevosita namoyon bo'ladi.

<sup>2</sup> Эшмуродов А.Т. Жамиятда маънавий хавфсизликни таъминлашни такомиллаштириш технологиялари: Сиёс. фан. фалс. докт. (PhD) ...дис. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 14.

<sup>3</sup> Ислмов И.Н. Маънавий хавфсизлик: монография. – Тошкент: Complex Print, 2023. – Б. 25.


<sup>4</sup> Золотова Н.П. Театр как социокультурный фактор духовной безопасности страны. Театр в современной России (состояние и перспективы) // Аналитический вестник Совета Федерации ФС РФ. – Москва, 1998. – № 4 (71). – С. 45-48.

<sup>5</sup> Маънавий асосий тушунчалар лугати. // Қ. Назаров ва б. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2021. – Б. 337.

<sup>6</sup> Маънавий асосий тушунчалар лугати. // Қ. Назаров ва б. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2021. – Б. 309.

2- jadval

**Mahalla institutining ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan faoliyat yo'nalishlari<sup>7</sup>**



Jumladan, yoshlar yetakchisi mahalladagi yoshlar o'rtasida yot g'oyalardan kirib kelinishining oldini olish bo'yicha ikki yo'nalishda tadbirlarni tashkil qiladi:

Birinchidan, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish borasida – “Zakovat” musobaqasi, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Xorijiy tillar bilimdoni” va “Yosh poliglot” tanlovlari hamda “Munozara” intellektual va milliy xalq o'yinlarini o'tkazadi.

Ikkinchidan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida “Yosh chegarachi”, “Yosh qutqaruvchi”, “Quvnoq startlar”, “Temurbeklar”, “To'maris malikalari”, “Shunqorlar”, “Yosh huquqshunos”, “Yosh saylovchi”, “Yosh deputat” tanlovlari hamda “Men ham askar bo'laman” aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlar tashkil etadi<sup>8</sup>.

Shuningdek, yoshlar yetakchisi yot g'oyalardan himoya qilish bo'yicha turli shiorlar ostida voyaga yetmagan va yoshlar o'rtasida shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar, fan, ta'lim ishlab chiqarish sohasi, ommaviy axborot vositalari va faol yoshlar ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, targ'ibot tadbirlari, aksiyalar o'tkazadi.

Shu bilan birga, fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi

<sup>7</sup> Mualliflik ishlanmasi.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19 январдаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сонли қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5831865>.

mahalladagi yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan, xususan, ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va shu kabi boshqa yot g'oyalardan himoya qilish, nazoratsizlik, qarovsizlik hamda g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish hamda bunga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshiradi<sup>9</sup>.

Mafkuraviy profilaktika bo'yicha “Ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasi fuqarolar yig'inlariga quyidagilar yo'nalishlarda yordam ko'rsatadi:

– ota-onalarning farzand tarbiyasidagi huquqiy, ma'naviy-axloqiy, pedagogik, psixologik va tibbiy bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

– farzand tarbiyasiga yetarli e'tibor bermayotgan ota-onalar bilan ishlaydi;

– mahalladagi oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olishga ko'maklashadi;

– farzand tarbiyasi jarayonida ota-onalarga yordamlashadi;

– oilalarda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashga ko'maklashadi.

Shuningdek, mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ikkinchi ustuvor yo'nalishi sifatida oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash<sup>10</sup> etib belgilangan bo'lib, unga ko'ra, “Ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasi hududiy maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmalari huzuridagi “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” jamoat kengashlari bilan oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usi shakllantirilishi, farzandini oilaviy hayotga tarbiyalashda ajdodlardan o'tib kelayotgan boy ma'naviy meros, axloq-odob, urf-odat va an'analardan bugungi kun

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йилнинг 18 июндаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 380-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5461749>.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>.

bilan uyg'unlashgan holda keng foydalanish kabi sohalarda hamkorlik qiladi. "Ayollar maslahat kengashi" esa xotin-qizlarga huquqiy, ma'naviy-axloqiy, pedagogik, psixologik va tibbiy maslahatlar berish orqali ularning oilalarini mustahkamlash va farzand tarbiyasidagi rolini hamda ijtimoiy faolliklarini oshirish, aholi o'rtasida "odobli qiz", "iffatli kelin" va "ma'rifatli ayol" g'oyalarini keng targ'ib etish ishlarida fuqarolar yig'inlariga ko'maklashadi.

"Keksalar maslahat guruhi" quyidagi chora-tadbirlarni ko'rishda fuqarolar yig'iniga ko'maklashadi:

- ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va ogohliligini oshirish, jaholatga qarshi ta'sirchan ma'rifat targ'ibotini, umumta'lim maktablarida kiyinish madaniyati hamda o'quvchilarning davomatini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

- keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolar yig'ini hududidagi muammolarni hal etish, milliy urf-odat, an'ana va marosimlarni tashkil etish hamda o'tkazishda yo'l-yo'riq ko'rsatish;

- oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash;

- ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning mahallalarda amalga oshirilishida faollik ko'rsatish;

- loqaydlik, oilaviy kelishmovchiliklar va yoshlar o'rtasida "ommaviy madaniyat"ning salbiy illatlari tarqalishining oldini olish, fuqarolar yig'inida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda jamoatchilik munosabatini shakllantirish.

Mahalla tomonidan amalga oshiriladigan mafkuraviy profilaktik tadbirlar mafkuraviy immunitetni shakllanishiga xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitet shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi<sup>11</sup> hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi,

ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti! Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim<sup>12</sup>."

2. Madaniy xavfsizlik yo'nalishida mahalla jamoatchilik nazoratini o'rnatish va hamkorlik qilish funksiyalarini amalga oshiradi. Madaniyat sohasida qabul qilingan qonunchilikka<sup>13</sup> muvofiq, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari madaniy faoliyatda ishtirok etadi.

Jumladan, madaniy faoliyat sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish fuqarolarning madaniyatini yuksaltirishga doir ishlarni amalga oshirishda ishtirok etadi, shuningdek, ushbu sohada davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Mahalla madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Madaniy faoliyat sohasida madaniy-tomosha tadbirlari, madaniy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy va boshqalar madaniy tadbirlar hisoblanadi. Mahalla milliy bayramlar (O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni, O'qituvchi va murabbiylar kuni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni va boshqalar), xalqaro va milliy miqyosidagi muhim sana kuni munosabati bilan aholi o'rtasida davlat tashkilotlariga uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va shu kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashishi mumkin.

Bundan tashqari, mahalla tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega ansambllar,

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг "Ижтимоий барқарорлиқни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. // <https://president.uz/uz/lists/view/649>.

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январдаги "Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида"ги ЎРҚ-668-сонли Қонунининг 12-моддаси // <https://lex.uz/docs/5230682>.

<sup>11</sup> Маънавият асосий тушунчалар лугати. // Қ. Назаров ва б. – Тошкент: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2021. – Б. 306.

diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar hisoblangan moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va asrashda<sup>14</sup> vakolatli organlarga yordam berishi mumkin.

Shuningdek, mahallaga o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan tegishli davlat organlaridan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, moddiy madaniy meros obyektlari haqida ma'lumotlarni so'rash va olish<sup>15</sup> vakolati berilgan.

3. Milliy qadriyatlarni shakllantirishda mahallaning o'rni haqida fikr yuritishdan oldin "qadriyat" so'zining ma'no-mazmunini anglashimiz darkor. Qadriyat jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi<sup>16</sup> hisoblanadi. Milliy qadriyatning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va axloqiy ko'rinishlari<sup>17</sup> mavjud.

Safo Ochil o'zining "Mustaqillik va tarbiya masalalari" nomli risolasida "Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha yetib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro'z, urug'-don ekish va hosil bayramlari, beshik to'y, sunnat to'y, o'g'il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog'liq to'ylar, uy-joy to'yi, qazo bilan bog'liq turli ma'raka-marosimlar, shuningdek, xalqning turi an'analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me'yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevishtirish va ardoqlash, askarlikka o'z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo'lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o'z ichiga qamrab oladi<sup>18</sup>" deb qayd etgan.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 30 августдаги "Маданий мерос объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида"ги 269-П-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/25461>.

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 22 апрелдаги "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш қўшимчалар киритиш ҳақидаги ЎРҚ-350-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/2156899>.

<sup>16</sup> Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати (А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида). – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 279.

<sup>17</sup> Ғофуров Ғ. Миллий анъаналар // Халқ сўзи, 1993 йил. 11 февраль, Б. 2

<sup>18</sup> Сафо Очил. Мустақиллик ва тарбия масалалари. Т: "Ўзбекистон", 1995. – Б. 5-6.

Demak, milliy qadriyatlarga milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, milliy raqs va xalq o'yinlari kabilarni kiritishimiz mumkin. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va uni avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishida mahalla instituti ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Masalan, mahalla raisi milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, to'y-marosimlarni isrofgarchiliklarsiz ixcham o'tkazilishini ta'minlash<sup>19</sup> bo'yicha funksiyalarni amalga oshiradi.

Xuddi shuningdek, har chorakda bir marotaba madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarning aholi bilan milliy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash, to'y-marosimlarni ixcham o'tkazish bo'yicha uchrashuvlari tashkil etilishini ta'minlaydi.

Mahalla fuqarolar yig'ini to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishni tartibga solish bo'yicha quyidagi funksiyalarga ega:

- to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazish bilan bog'liq milliy va diniy qadriyatlarga, axloq qoidalariga zid bo'lgan marosimlar, nomaqbul odatlar va ularning salbiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish va tegishli tavsiyalar berish;

- to'y egalari tomonidan sodir etiladigan milliy urf-odat va an'analarni mensimaslik, shuhratparastlik, isrofgarchilik kabi xatti-harakatlar ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, tegishli talablarga rioya etilmagan holatlarni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish;

- to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham, keng aholi manfaatlarini, milliy qadriyat va an'analarni hisobga olgan holda, ijtimoiy tabaqalanishga yo'l qo'ymasdan o'tkazish bo'yicha jamoaviy suhbatlar tashkil etish;

- hududda o'tkazilishi rejalashtirilgan har bir oilaviy tadbirdan xabardor bo'lish, uning o'tkaziladigan joyi, ishtirokchilar soni bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;

- to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlardan oldin va keyin o'tkaziladigan

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги "Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини хал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-209-сонли фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган маҳалла раисининг асосий вазифалари. <https://lex.uz/ru/docs/6705763>.

ortiqcha rasm-rusum va marosimlarning oldini olish choralari ko'rish<sup>20</sup>.

Mahalla milliy qadriyatlarni shakllantirish orqali aholini boshqaradi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini aholi ongiga singdirishga harakat qiladi.

4. Axborot-psixologik xavfsizlik yo'nalishida:

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yildan-yilga o'sib bormoqda. Bu borada mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan hududda istiqomat qiluvchi aholiga xabar va ma'lumotlarni tezroq yetkazish maqsadida, asosan, "Telegram" messenjerlarida alohida platformalar (kanal) yaratilgan. Mazkur kanal a'zolari mahallada istiqomat qiluvchi turli yoshdagi internet foydalanuvchilari hisoblanadi.

Shu o'rinda qayd etib o'tish joizki, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan yuritiladigan kanallar orqali turli mavzularda (diniy, axloqsizlikni targ'ib qilish, aksiyalar va hokazo) beriladigan ma'lumotlar ma'lum bir aholi (olomon yoki to'da) ongini shakllanishiga ta'sir qilishi mumkin. Bu axborot-psixologik ta'sir ko'rinishi ekanligi bilan ifodalanadi.

#### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mahalla fuqarolar yig'inining ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan faoliyatida quyidagi muammo va kamchiliklar mavjud:

Birinchidan, mahallalarning madaniy faoliyati sohasida madaniy tadbirlarni o'tkazish va tashkil qilish bog'liq bo'lgan kamchiliklar kuzatilmoqda, jumladan:

- mahallalardagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar rasmiyatchilik uchun o'tkazilayotganligi;
- uchrashuvlar, davra suhbatlari va kechalarga faqat "dejurniy" fuqarolar jalb qilinayotganligi;
- davra suhbatlari va uchrashuvlarda ma'ruza bilan cheklanib qolayotganligi;
- mahallalar qoshida yoshlarning bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga qaratilgan to'garak markazlarining yetishmasligi.

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2019 йил 14 сентябрдаги "Тўйлар, oilaviy tantanalar, ma'raqa va marosimlar ўtkaziliшини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида"ги 2736-III/КҚ-592-III-сонли қўшма қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5153833>

Ikkinchidan, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va asrash sohasida mahalla fuqarolar yig'inlari bilan talab darajasida hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy-madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-son qarori bilan moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, ro'yxatga respublikadagi 10 mingga yaqin arxeologiya, arxitektura va monumental san'at yodgorliklari, diqqatga sazovor joylar kiritilgan.

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi ro'yxatiga kiritilgan moddiy merosning ko'chmas mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inlari bilan o'zaro axborot almashish tizimi yo'lga qo'yilmagani sababli mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan ro'yxatga kiritilgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabarsiz bo'lishiga olib kelmoqda.

Natijada davlat muhofazasiga olingan moddiy madaniy meros obyektlarini yo'q qilish yoki shikast yetkazish holatlari kelib chiqmoqda.

Uchinchidan, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazish bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inlari zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan bo'lsada, joylarda oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazishda shuhratparastlik, o'zini ko'z-ko'z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik, isrofgarchilik, xalqimizning urf-odatlarini va an'analarini mensimaslik kabi illatlar ko'zga tashlanmoqda.

Masalan, amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarda 200 nafargacha, mazkur tadbirlar munosabati bilan osh berish marosimida 250 nafargacha mehmon qatnashishi, soat 23:00 dan keyin to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni davom ettirishi ta'qiqlanganligi belgilangan bo'lsa-da, ayrim fuqarolar tomonidan ushbu qonun talablari qo'pol ravishda buzib kelinmoqda.

Bu esa o'z navbatida, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishdagi o'rni sezilmayotganligidan dalolat bermoqda.

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahallaning ma'naviy xavfsizlikni

mafkuraviy, madaniy, axborot-psixologik va milliy qadriyatlar sohalarida ta'minlash bo'yicha faoliyati quyidagilar bilan izohlanadi:

- mafkuraviy profilaktika va mafkuraviy immunitetini shakllantirish;
- tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar hisoblangan moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va asrash;
- madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish;

– ma'lum bir platformalarda aholiga ma'lumotlar va xabarlar yetkazish;

– milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, xalq og'zaki ijodi, milliy raqs va xalq o'yinlarini asrab avaylash va uni avlod-dan-avlodga meros bo'lib o'tishida vositachi bo'lish;

– urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, to'y-marosimlarni isrofgarchiliklarsiz ixcham o'tkazilishini ta'minlash.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исломов И.Н. Маънавий хавфсизлик. Монография. – Тошкент: Complex Print, 2023. – Б. 38.
2. Эшмурадов А.Т. Жамиятда маънавий хавфсизликни таъминлашни такомиллаштириш технологиялари: Сиёс. фан. фалс. докт. (PhD) ...дис. автореф. – Тошкент, 2020.
3. Золотова Н.П. Театр как социокультурный фактор духовной безопасности страны. Театр в современной России (состояние и перспективы) // Аналитический вестник Совета Федерации ФС РФ. – Москва, 1998. – № 4 (71).
4. Маънавий асосий тушунчалар луғати // Қ. Назаров ва б. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2021.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 19 январдаги “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-92-сонли қарори // <https://lex.uz/uz/docs/5831865>.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йилнинг 18 июндаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 380-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/5461749>.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/5344692>.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. // <https://president.uz/uz/lists/view/649>.
9. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январдаги “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги ЎРҚ-668-сонли Қонунининг 12-моддаси // <https://lex.uz/docs/5230682>.
10. Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 30 августдаги “Маданий мерос объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги 269-II-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/25461>.
11. Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 22 апрелдаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш қўшимчалар киритиш ҳақидаги ЎРҚ-350-сонли Қонуни // <https://lex.uz/acts/2156899>.
12. Мустақиллик изохли илмий-оммабоп луғати. (А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида). – Тошкент: Шарқ, 1998.
13. Ғофуров Ғ. Миллий анъаналар // Халқ сўзи, 1993 йил. 11 февраль.
14. Сафо Очил. Мустақиллик ва тарбия масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1995.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 декабрдаги “Маҳалла институтининг жамиятдаги ролини тубдан ошириш ва унинг аҳоли муаммоларини ҳал этишда биринчи бўғин сифатида ишлашини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-209-сонли Фармонининг I-илоvasи билан тасдиқланган маҳалла раисининг асосий вазифалари. <https://lex.uz/ru/docs/6705763>.
16. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 2019 йил 14 сентябрдаги “Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 2736-III/ҚҚ-592-III-сонли қўшма қарори // <https://lex.uz/ru/docs/5153833>.

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

## MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии*  
*Society, Gender and Family in Central Asia*

xalqaro ilmiy jurnali

*международный научный журнал*

*international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga  
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun  
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O’.,  
Razzakova N., Sobirova E.,  
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.